«O‘ZLITINEFTGAZ» AJ HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.36/2025.27.12.T.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

MURODOV ABDULLAZIZ ILHOM O‘G‘LI

XO‘JAOBOD GAZNI YER OSTI SAQLASH INSHOOTIDA NAZORAT TIZIMLARINI MAQBULLASHTIRISH ORQALI ISHLATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

04.00.13 – Neft va gaz konlarini o‘zlashtirish hamda ishlatish

texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UDK: 622.691.24:622.279.5

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) in technical sciences

Murodov Abdullaziz Ilhom o‘g‘li
Xo‘jaobod gazni yer osti saqlash inshootida nazorat tizimlarini maqbullashtirish orqali ishlatish samaradorligini oshirish…… 3

Муродов Абдуллазиз Илхом угли
Повышение эффективности эксплуатации Ходжаабадского подземного хранилища газа путем оптимизации систем контроля…… 21

Murodov Abdullaziz Ilhom ugli
Improving the operational efficiency of the Khojaabad underground gas storage facility through optimization of control systems…….. 39

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……. 43

«O‘ZLITINEFTGAZ» AJ HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.36/2025.27.12.T.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

MURODOV ABDULLAZIZ ILHOM O‘G‘LI

XO‘JAOBOD GAZNI YER OSTI SAQLASH INSHOOTIDA NAZORAT TIZIMLARINI MAQBULLASHTIRISH ORQALI ISHLATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

04.00.13 – Neft va gaz konlarini o‘zlashtirish hamda ishlatish

texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/T6136 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) «O‘ZLITINEFTGAZ» AJ Ilmiy kengashining veb-sahifasida (www.liting.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Abduraximov Muhammad Anvarovich** texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim
Rasmiy opponentlar:	**Shevtsov Vladimir Mixaylovich** texnika fanlari doktori, professor
	Jo‘rayev Eldor Isroilovich texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	Buxoro davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi «O‘ZLITINEFTGAZ» AJ huzuridagi DSc.36/2025.27.12.T.01.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “25” noyabr soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100029, Toshkent sh., Taras Shevchenko ko‘chasi, 2, tel.: (+99871) 280-67-00; faks: (+99871) 256-66-48; e-mail: liting@liting.uz).

Dissertatsiya bilan «O‘ZLITINEFTGAZ» AJning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№33 - raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100029, Toshkent sh., Taras Shevchenko ko‘chasi, 2, tel.: (+99871) 280-67-00; faks: (+99871) 256-66-48; e-mail: liting@liting.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil “___” _____ dagi ___-raqamli tarqatish bayonnomasi reyestri).

U.S. Nazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

R.U. Shafiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashning ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

A.A. Rahimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yoz mavsumida tabiiy gazga bo‘lgan talabning kamayishi va qish mavsumida uning keskin ortishi bilan bog‘liq muammoni hal etish maqsadida tuzli va suvli qatlamlarda, shuningdek, tugagan uglevodorod konlarida gazni yer osti saqlash inshootlari (GYOSI) barpo etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Yirik gaz iste’molchilari yaqinida yer osti gaz omborlarini yaratish uchun yaroqli qatlamlar tanqisligi, ayrim hollarda esa ular umuman mavjud emasligi sharoitida amaldagi GYOSIlarni modernizatsiya qilish va ularning maqbul ish rejimlarini ilmiy asoslash hisobiga yuqori samaradorlikka erishish neft-gaz sohasi uchun muhim ahamiyatga ega.

Jahonda GYOSIlarda gazni haydash va olish mavsumlarida yuzaga keladigan muammolarni o‘rganish hamda ularning oldini olish bo‘yicha geologik-texnologik tadbirlarni asoslashga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunday tadqiqotlar uzoq muddat ishlatilgan uglevodorod konlarining nisbatan katta chuqurlikda yotgan mahsuldor qatlamlarida barpo etilgan GYOSIlar uchun alohida ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan kompleks tadqiqotlar asosida bunday inshootlarning samarali ishlatilishiga ta’sir etuvchi geologik va texnologik omillarni aniqlash hamda monitoring va nazorat tizimlarini maqbullashtirish orqali ularni takomillashtirish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Respublikamizda GYOSIlarda geologik o‘rganish usullarini, gazni haydash va olish rejimlarini maqbullashtirishni takomillashtirish va joriy etish orqali ularning ishlatish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy va amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida[1] tarmoqni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish va uning texnologik diversifikatsiyasini oshirish vazifalari belgilangan. Shundan kelib chiqib, yer osti rezervuarlarining g‘ovak hajmidan maksimal samarali foydalangan holda gazni yer osti saqlash tizimlarini yanada maqbullashtirishga qaratilgan yangi texnologik yechimlarni ishlab chiqish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PF-116-son “Ma’muriy islohotlar doirasida tog‘-kon sanoati va geologiya sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4388-son “Aholi va iqtisodiyotni energiya resurslari bilan barqaror ta’minlash, neft-gaz tarmog‘ini moliyaviy sog‘lomlashtirish va uni boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 23-iyuldagi PQ-4401-son “Yer qa’rini geologik o‘rganishni yanada takomillashtirish va 2020-2021-yillarda mineral-xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.

rivojlanishining VIII. “Yer haqidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyoni qayta ishlash)” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Gazni yer osti saqlash inshootlarini barpo etish va ularni maqbul ishlatishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, American Petroleum Institute, Halliburton, Baker Hughes, Schlumberger (AQSh), China University of Petroleum (XXR), I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti, Butunrossiya tabiiy gazlar ilmiy-tadqiqot instituti (VNIIGAZ), Butunrossiya neft ilmiy-tadqiqot geologiya-qidiruv instituti (VNIGRI), “VolgoUralNIPIgaz” (Rossiya), shuningdek, «O‘ZLITINEFTGAZ» AJ va Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida (O‘zbekiston) olib borilmoqda.

Jahonda tabiiy gazni saqlash tizimlarini yaratish usullari va ilmiy-texnologik yechimlarini ishlab chiqish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalar olingan: tugagan gaz konlarida GYOSI barpo etishning gidrogazodinamik hisoblash usullari asoslangan (American Petroleum Institute, AQSh); yer osti gaz omborlarini siklik ishlatishning uch o‘lchamli geologik-gidrodinamik modellarini qurish dasturiy-texnik majmualari hamda suvli qatlamlar va tugagan gaz konlarida omborlar barpo etish bo‘yicha texnologik yechimlar ishlab chiqilgan (Schlumberger, Halliburton, AQSh); murakkab geologik sharoitlarda vertikal va gorizontal quduqlarni joylashtirish texnologiyalari yaratilgan (Baker Hughes, AQSh); suvli gorizontlarda GYOSI barpo etishni gidrogazodinamik prognozlashning metodologik asoslari shakllantirilgan (I.M. Gubkin nomidagi RDNGU, VNIIGAZ, Rossiya); O‘zbekistonda GYOSI barpo etish va ishlatish bo‘yicha dastlabki loyiha-texnologik yechimlar ishlab chiqilgan (TDTU, «O‘ZLITINEFTGAZ» AJ, O‘zbekiston).

Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqot natijalari xorijlik olimlar A.V. Gavura, A.V. Raznitsyn, A.N. Anankin, A.R. Ziganshin, A.Yu. Vishnyakov, A.C. Bertolini, V.D. Lysenko, V.I. Kolganov, V.S. Boyko, V. Gholami, D.V. Zelinin, G.A. Yeremyan, G.G. Ismailov, E.K. Iskandarov, E.T. Brantson, I.S. Putilov, I.V. Matveyev, M.L. Surguchev, S.N. Zakirov, S.A. Haghighat, S.D. Mohaghegh, J.D. Schiozer, shuningdek, respublikamiz olimlari U.S. Nazarov, B.A. Aliyev, A.X. Agzamov, A.U. Nazarov, N.N. Maxmudov, M.A. Abduraximov, V.M. Shevtsov, N.X. Ermatov, A.A. Zakirov, B.Sh. Akramov, K.B. Nazarovlarning ishlarida yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida yangi obyektlarni qurish va mavjudlarini takomillashtirishda yuqori texnologik uskunalar va texnik tizimlardan foydalangan holda GYOSIlarni loyihalash va ishlatishni tahlil qilish tizimlarini takomillashtirish zarurligi asoslangan.

Shu bilan birga, turli turdagi GYOSIlarning bufer hajmlarini yaratish uchun zarur bo‘lgan tabiiy gaz miqdori, gorizontal quduqlar tizimidan foydalanishga asoslangan yangi loyihalash tamoyillari, shuningdek, past qatlam bosimlarida olinadigan gazni tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish masalalari hozirgi vaqtgacha to‘liq o‘rganilmagan. Shu sababli tugayotgan gazkondensat-neft konlarida barpo etilgan GYOSIlarni siklik ishlatish tizimlarini nazorat va monitoring

vositalari asosida takomillashtirish va maqbullashtirishning ilmiy-texnologik asoslarini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № 03/9-588 "Neft konlarini o'zlashtirish va ishlatishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish" (2022), № 03/9-580 "Matnli materiallar va grafik ilovalarni raqamlashtirish" (2025) hamda № 03/9-416 "Gazni yer osti saqlash inshootlarida tabiiy gazni tozalash va quritish qurilmalarida dietilenglikolni tuzsizlantirish samaradorligini oshirish" (2025) mavzularidagi amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi neft-gaz qatlamlarida barpo etilgan gazni yer osti saqlash inshootlarida geofizik va gidrogazodinamik nazorat tizimlarini maqbullashtirish asosida ularning ishlatish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-texnologik yechimlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tabiiy gaz olish quvvatlarini oshirishga yo'naltirilgan GYOSI ekspluatatsion ko'rsatkichlari monitoringi masalalariga tizimli yondashuvning metodologik asoslarini tahlil qilish;

GYOSI barpo etish orqali past bosimli neft-gaz qatlamlarini oxirigacha ishlash imkoniyatlarini tadqiq etish;

gorizontal quduqlarni qo'llash orqali GYOSI ishlatish samaradorligini oshirishning tizimli maqbullashtirish vazifalarini asoslash;

past qatlam bosimlarida ishlatiladigan gazni yer osti saqlash inshootlarining yer usti jihozlanish tizimlarini maqbullashtirish bo'yicha texnologik yechimlar ishlab chiqish;

neft hoshiyasini qo'shimcha ishlash bilan uyg'unlashgan holda gazni yer osti saqlash inshootlarini ishlatish tizimini loyihalash bo'yicha texnologik yechimlar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida O'zbekiston Respublikasi Andijon viloyatida joylashgan Xo'jaobod gazni yer osti saqlash inshooti olingan.

Tadqiqotning predmeti neft-gaz qatlamlarida barpo etilgan gazni yer osti saqlash inshootlarini ishlatishdagi gidrodinamik jarayonlar hamda gaz saqlash obyektlarini takomillashtirish bo'yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda kon-geologik ma'lumotlarni tizimlashtirish va umumlashtirish, quduqlarni geofizik va gidrogazodinamik tadqiq qilish, statistik tahlil va moddiy balans usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

neft hoshiyalariga ega gaz qatlamlarida barpo etilgan gazni yer osti saqlash inshootlarining faol gaz hajmini qazib olinadigan neft hajmi hisobiga oshirish imkoniyati asoslangan;

suvlangan quduqlar ustyesidagi statik bosim bo'yicha hisoblangan qatlam bosimi asosida aniqlangan drenajlanadigan gaz zaxiralari chuqurlik manometrlari

yordamida o‘lchangan qatlam bosimi bo‘yicha baholangan qiymatlarga nisbatan 1,7-1,9 marta kam ko‘rsatilishi isbotlangan;

quduqlarni qatlamga katta depressiya bilan ishlatish qisqa muddatda ularning debitini oshirishi, uzoq muddatda esa quduq tubi zonasida skin-faktor ortishi hisobiga mahsuldorlik koeffitsientini kamaytirishi isbotlangan;

gaz olish mavsumining oxirida qum tiqinlarining hosil bo‘lishi jadallashishi, haydash davrida esa yuqori bosim ta’sirida ular zichlashib, filtratsion qarshilikni oshirishi asoslangan;

gaz bilan to‘yingan g‘ovakli hajmning qayta taqsimlanishini nazorat qilishning integral mezoni sifatida haydashning solishtirma ko‘rsatkichidan (qatlam bosimining 1 kgf/sm² ga o‘zgarishiga to‘g‘ri keladigan gaz hajmi) foydalanish asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

texnik holati murakkablashgan – ekspluatatsion kolonnalari ezilgan va filtr intervallari qum tiqinlari bilan berkilgan – quduqlarni murakkab tuzilgan quyi XX-XXII gorizontlardan nisbatan bir jinsli XIX gorizontga qaytarish samaradorligi asoslangan;

mahsuldorlik koeffitsientlari, qatlam bosimlari, texnik holati va filtratsion parametrlari bo‘yicha farqlanadigan quduqlar guruhlarining individual texnologik ish rejimlari asoslangan;

quduqlarning geologik va texnologik holatini kompleks tahlil qilish asosida qum tiqinlaridan tozalash usullarini asoslash algoritmi ishlab chiqilgan;

nazoratning statik va dinamik ko‘rsatkichlarini kompleks tahlil qilish orqali gazni yer osti saqlash inshooti sifatida ishlatilayotgan qatlamlar o‘rtasida suv va gaz migratsiyasi mavjud emasligi hamda ularni alohida mustaqil obyektlar sifatida ishlatish imkoniyati asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi quduqlarda o‘tkazilgan geofizik va gidrogazodinamik tadqiqotlar hamda geologik-texnik tadbirlar, ishlatish texnologik rejimlarining loyihaviy va amaldagi ko‘rsatkichlarining mosligi hamda ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalarning samaradorligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati gazkondensat va neft qatlamlarida barpo etilgan gazni yer osti saqlash inshootlarini ishlatish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash, nazorat qilish va boshqarish usullarini asoslash, quduqlar mahsuldorligiga ta’sir etuvchi geologik va texnologik omillarni kompleks tahlil qilish, shuningdek, samaradorlikni baholashga metodik yondashuvlarni takomillashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati quduqlar mahsuldorligini oshirish va ularning ish rejimlarini maqbullashtirish bo‘yicha geologik-texnologik tadbirlarni asoslash, qatlamning geologik tuzilishi va quduqlarni joylashtirish sxemasining bosimning maydon bo‘yicha notekis taqsimlanishiga ta’sirini aniqlash, shuningdek, faol gaz hajmini 13,1 % ga oshirish imkoniyatini asoslash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Gazni yer osti saqlash inshootini ishlatish tizimlarini loyihalashni takomillashtirish va maqbullashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

qatlam va quduq tubi bosimini chuqurlik manometri bilan o‘lchash, quduq tubidagi sathni nazorat qilish va ishchi depressiyani cheklash bo‘yicha tavsiyalar XIX gorizontning 802, 809, 811, 816, 821, 823, 824, 844, 856 va 857-sonli hamda XX-XXII gorizontlarning 829, 833, 841, 842, 848, 850, 852, 866, 873 va 874-sonli quduqlarida joriy etilgan (“O‘ZTRANSGAZ” AJning 2023-yil 21-sentabrdagi 04-12/2-45/4262-son ma’lumotnomasi). Natijada quduqlarning maqbul texnologik ish rejimlarini belgilash imkoni yaratilgan;

quduqlar bo‘yicha individual shtutser diametrini belgilash va gazodinamik tadqiqotlar hajmini 12-15 tagacha yetkazish bo‘yicha tavsiyalar GSP-1 va GSP-2 ning 62 ta ekspluatatsion qudug‘ida joriy etilgan (“O‘ZTRANSGAZ” AJning 2023-yil 21-sentabrdagi 04-12/2-45/4262-son ma’lumotnomasi). Natijada gazni yer osti saqlash inshootini ishlatish jarayonini tezkor nazorat qilish imkoni yaratilgan;

gazni faol saqlash hajmlarini bosqichma-bosqich oshirishning texnologik sxemasi Xo‘jaobod gazni yer osti saqlash inshootida joriy etilgan (“O‘ZTRANSGAZ” AJning 2023-yil 21-sentabrdagi 04-12/2-45/4262-son ma’lumotnomasi). Natijada faol gaz hajmini 13,1 % ga oshirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “Xo‘jaobod gazni yer osti saqlash inshootining hozirgi holati va uni ishlatishni nazorat qilish tizimlarining ilmiy-nazariy asoslari” deb nomlangan birinchi bobida tadqiqot obyektining geologik tuzilishi, mahsuldor gorizontlarning kollektorlik xususiyatlari, qatlam bosimining GYOSIni ishlatishni nazorat qilishdagi asosiy ko‘rsatkich sifatidagi ahamiyati hamda O‘zbekiston, Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘iston Respublikasidagi GYOSIlarni nazorat qilish va ishlatish tajribasining qiyosiy tahlili natijalari bayon etilgan.

Xo‘jaobod strukturasi Muyon yotqiziqlarining XX qatlami tomi bo‘yicha gumbazsimon antiklinal burmadan iborat (balandligi 190 m, eni 2,3 km, uzunligi 4,0 km); gumbaz qismida tektonik buzilishlarning yo‘qligi XIX-XXII qatlamlarda yer osti gaz ombori barpo etilgan tuzilmaning germetikligidan dalolat beradi.

Xo‘jaobod konida jami 11 ta mahsuldor qatlam aniqlangan bo‘lib, ulardan quyi bo‘r va yura yotqiziqlaridagi XIX, XX, XXI va XXII qatlamlar asosiy hisoblanadi. Sof gaz uyumi faqat XIX qatlamda mavjud bo‘lib, uning dastlabki qatlam bosimi 192,5 kgf/sm² ni tashkil etgan. XX, XXI va XXII qatlamlarda kichik neft hoshiyalariga ega gaz uyumlari mavjud bo‘lib, ularning yotish chuqurligi 2145 m dan 2320 m gacha o‘zgaradi. Uyumlar gazi gazkondensat turiga mansub bo‘lib, kondensat miqdori 8 dan 160 cm³/m³ gacha o‘zgaradi.

Kollektorlarning filtratsion-sig‘im xususiyatlari (FSX) tahlili natijasida mahsuldor qatlamlarning o‘rtacha g‘ovakligi va o‘tkazuvchanligi qiymatlari o‘rtasida sezilarli farq mavjudligi aniqlangan: XIX gorizontning g‘ovakligi 10 % atrofida, o‘tkazuvchanligi 18-56 mD (o‘rtacha 34 mD), XX-XXI gorizontlarniki esa o‘rtacha 15 % ni tashkil etadi; XX-XXII gorizontlarda kern bo‘yicha o‘tkazuvchanlik 0-7 mD dan oshmaydi, quduq mahsuldorligi bo‘yicha esa 20-150 mD ga yetadi.

XX, XXI va XXII qatlamlarning bir-biridan zich gilli to‘siqlar bilan ishonchli ajratilganligi ularni alohida mustaqil obyektlar sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. GYOSIni ishlatishda qatlam qopqog‘ida vertikal yoriqlar ochilishining oldini oluvchi maksimal ruxsat etilgan qatlam bosimi quyidagi shartdan aniqlangan:

$$P_{max} \leq \eta \cdot P_{tj}, \quad (1)$$

bu yerda η – plastik tog‘ jinslari uchun ichki ishqalanish burchagi orqali aniqlanadigan koeffitsient; Ptj – gaz ombori qopqog‘i ustidagi tog‘ jinslari bosimi.

Ombor qalinligi 5 m dan ortiq gilli qopqoq bilan qoplangan hollarda maksimal ruxsat etilgan bosim gidrostatik bosimdan 1,3-1,5 marta yuqori bo‘lishi mumkinligi asoslangan.

Gaz haydovchi (vertikal) va neft-gaz qazib oluvchi (gorizontal) quduqlarni ochish sxemalari bo‘yicha o‘tkazilgan ko‘p variantli tadqiqotlar asosida kon bo‘yicha 33 tagacha yangi gorizontal quduq (gorizontal qismining uzunligi 500 m gacha) burg‘ilanganda loyihani amalga oshirishning 16 yillik davrida 1,8 mln tonnagacha qoldiq geologik neft zaxiralarini qazib olish mumkinligi aniqlangan. Bundan tashqari, neft hoshiyalari bo‘yicha gaz saqlashga qo‘shimcha ravishda 21,5 % g‘ovak hajm jalb etilganda 10 yillik ishlatish davrida 187,0 ming tonnagacha qoldiq neft zaxiralarini qazib olish mumkinligi ko‘rsatilgan.

XIX gorizont quduqlari bo‘yicha 2019-2020-yillar gaz olish siklida bo‘shagan g‘ovak bo‘shliq hajmlari tahlil qilinib, qatlam bosimi, olingan gaz miqdori va ΔP/Z ko‘rsatkichi o‘rtasidagi bog‘liqliklar aniqlangan. Gaz haydash davri oxirida ombordagi maksimal bosim 21,7 MPa dan 25,0 MPa gacha oshadi, gaz olish mavsumi oxirida XIX gorizont bo‘yicha qatlam bosimi 12,3 MPa ni tashkil etadi; 2019-2020-yillarda haydalgan (529,3 mln m³) va olingan (506,3 mln m³) gaz hajmlari loyiha ko‘rsatkichlariga yaqin.

O‘zbekiston Respublikasida tugagan gaz qatlamlari negizida barpo etilgan Xo‘jaobod, Gazli va Shimoliy So‘x (So‘x anklavi) GYOSIlari faoliyat ko‘rsatadi, ularning yillik gaz saqlash sig‘imi 4,6 mlrd m³ ni tashkil etadi; taqqoslash uchun, Qozog‘iston Respublikasi GYOSIlarining umumiy faol hajmi 4,6 mlrd m³ ni, Rossiya Federatsiyasidagi 27 ta GYOSIning operativ gaz zaxirasi esa 72,1 mlrd m³ ni tashkil etadi. Qiyosiy tahlil O‘zbekistonda gaz saqlanadigan qatlamlar nisbatan katta chuqurliklarda yotishini, bu esa yuqori haydash va qatlam bosimlarini ushlab turishni hamda uskunalarning texnik imkoniyatlari ushbu talablarga mos bo‘lishini taqozo etishini ko‘rsatgan.

Dissertatsiyaning “Xo‘jaobod gazni yer osti saqlash inshootini ishlatish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar va ularni nazorat qilish usullari” deb nomlangan ikkinchi bobida inshootning ishlash holati va unga ta’sir etuvchi geologik, gidrodinamik, texnologik va texnik omillar, qum tiqinlarining hosil bo‘lish mexanizmi, quduq tubi zonasini tozalash usullari, qishki gaz olish mavsumi tadqiqotlari hamda faol gaz hajmini oshirish imkoniyatlarini moddiy balans usulida baholash natijalari bayon etilgan.

Inshootni ishlatish jarayoniga ta’sir etuvchi asosiy omillar to‘rt guruhga birlashtirilgan: geologik (qumli kollektorlar, qatlamning geterogen tuzilishi – qum tiqinlarining hosil bo‘lishi), gidrodinamik (qatlam bosimining keskin mavsumiy o‘zgarishi – quduqlar qabul qiluvchanligining pasayishi), texnologik (gaz haydash va olish rejimlarining noto‘g‘ri tanlanishi – quduq tubi zonasi holatining yomonlashishi) va texnik (quduqlarning eski fondi va konstruktiv cheklovlar – avariya xavfining ortishi).

Xo‘jaobod GYOSIda gaz haydash va olish mavsumlari oralig‘ida quduq ustyesidagi bosimning 180-190 kgf/sm² dan 18-25 kgf/sm² gacha keskin pasayishi kuzatiladi. Bunday katta bosimlar farqi ishchi depressiyaning ortishiga olib kelib, qum zarrachalarining qatlamdan quduq tomon jadal chiqishini, perforatsiya teshiklarining qisman yoki to‘liq berkilishini hamda quduq tubi zonasida kolmatatsiya jarayonlarining kuchayishini rag‘batlantiradi. Quduq tubi zonasi holatini miqdoriy baholashning asosiy ko‘rsatkichi sifatida filtratsion qarshilik koeffitsienti qabul qilingan:


$$Rf = \Delta P/Q, \qquad (2)$$

bu yerda Rf – filtratsion qarshilik koeffitsienti; ΔP = Pq – P0 – ishchi depressiya, MPa. Rf qiymatining keskin ortishi quduq tubi zonasi ifloslanganligining asosiy indikatori hisoblanadi.

Qum tiqinlarining hosil bo‘lish jarayoni uch bosqichda kechishi aniqlangan: yuqori depressiya ta’sirida qum donalarining qatlam ichida siljishi; oqim tezligining keskin o‘zgarishi hisobiga zarrachalarning perforatsiya zonasida to‘planishi; quduq tubida (zumpfda) zich va mexanik mustahkam tiqinning shakllanishi (1-rasm).

Quduq tubida hosil bo‘lgan qum tiqini quduqlar qabul qiluvchanligining 30-60 % ga pasayishiga, ishchi depressiyaning ortishiga va quduq mahsuldorligining tez kamayishiga olib keladi. Gaz olish mavsumi oxirida ishchi depressiyaning keskin ortishi qum tiqinlari hosil bo‘lish jadalligini sezilarli oshirishi, keyingi haydash

mavsumida esa yuqori bosim ta’sirida ushbu tiqinlar zichlashib, qattiq mexanik tuzilmaga aylanishi tajribada tasdiqlangan.



1-rasm. “Qatlam – perforatsiya intervali – zumpf” zanjiri bo‘yicha qum tiqinining hosil bo‘lish sxemasi

Quduq tubi zonasini tozalash usullarini tanlashda qum tiqinining zichligi, joylashish chuqurligi, qatlam bosimi, quduq konstruksiyasi va texnologik xavflarni hisobga olish zarurligi ko‘rsatilgan.

Tahlil quduq tubini tozalashning universal usuli mavjud emasligini ko‘rsatgan: an’anaviy yuvish usullari faqat yangi hosil bo‘lgan g‘ovak tiqinlarda samarali bo‘lsa, bir necha mavsum davomida zichlashgan tiqinlarni bartaraf etishda vintli quduq tubi dvigateli (VQD), qattiq sementlashgan tiqinlarda esa pikodolota qo‘llash ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan yechim hisoblanadi. Eng yuqori samaraga usullarni kompleks qo‘llash – avval g‘ovak tiqinlarni yuvish yoki jelonka bilan olib tashlash, so‘ngra zich tiqinlarni VQD yoki pikodolota yordamida bartaraf etish orqali erishilishi aniqlangan.

Quduq tubi zonasini tozalash ishlarini ilmiy asoslangan algoritm asosida tashkil etish taklif etilgan. Ishlab chiqilgan olti bosqichli algoritm quyidagilarni o‘z ichiga oladi: geofizik (GK, NNK, INNK) va gidrogazodinamik tadqiqotlar yordamida quduq holatini diagnostika qilish; qum tiqini balandligini aniqlash ($\Delta h > 3$-5 m bo‘lganda tozalash zarur); ishchi depressiya va xavf darajasini baholash; tiqinni uch sinfga (g‘ovak, zich, qattiq) ajratib, tozalash usulini tanlash; quduq tubini mexanik tozalash; qabul qiluvchanlikni tekshirish va quduqni ishlatishga qaytarish.

Xo‘jaobod GYOSIning XX-XXII gorizontlaridan 2019-2020-yillar qishki gaz olish mavsumida 32 ta quduq orqali jami 490,7 mln m³ tabiiy gaz olingan. Biroq geofizik, gidrogazodinamik va ekspluatatsion ma’lumotlar tahlili XX-XXII gorizontlar ekspluatatsion fondidagi 10 ta quduqda (828, 829, 831, 832, 836, 838, 840, 843, 852, 853-quduqlar) ekspluatatsion kolonnalarning ezilishi, filtr intervallarining qisman berkilishi va abraziv-korrozion yeyilish mavjudligini

ko‘rsatgan; ushbu quduqlarda ishchi depressiya ortganiga qaramay gaz debitining mutanosib o‘sishi ta’minlanmagan, ya’ni mahsuldorlik koeffitsienti J = Q/ΔP keskin pasaygan.

Past mahsuldor va texnik jihatdan murakkablashgan quduqlarni XIX gorizontga o‘tkazish maqsadga muvofiqligi ilmiy asoslangan. Bu qaror XIX gorizontda ishlatish sharoitlarining nisbatan barqarorligi, qum tiqinlari hosil bo‘lish jadalligining pastligi va gidrodinamik rejimlarni boshqarish imkoniyatlarining kengligi bilan izohlanadi. Shu asosda 2020-2021-yillarda kolonnalari ezilgan 10 ta quduqni XIX qatlamga o‘tkazish va ular o‘rniga XX-XXII gorizontlarga 10 ta yangi quduq burg‘ilashni nazarda tutuvchi qayta taqsimlash rejasi ishlab chiqilgan.

Mazkur qayta taqsimlashning faol gaz hajmiga ta’siri miqdoriy jihatdan aniqlangan: 10 ta quduqni XX-XXII gorizontlardan XIX gorizontga o‘tkazish va ular o‘rniga almashtiruvchi quduqlar burg‘ilash XIX gorizont bo‘yicha faol gaz hajmini 600,0 mln m³ ga, XX-XXII gorizontlar bo‘yicha 450,0 mln m³ ga, inshoot bo‘yicha jami 1050,0 mln m³ ga yetkazish imkonini beradi. Loyihaviy ekspluatatsion fond 72 ta quduqni (XIX gorizontda 40 ta, XX-XXII gorizontlarda 32 ta) tashkil etadi, 2024-yil holatiga ko‘ra esa fondda 62 ta quduq mavjud; yetishmayotgan 10 ta quduq aynan qayta taqsimlash va almashtiruvchi quduqlarni burg‘ilash hisobiga to‘ldiriladi.

Ekspluatatsion fondni maqbullashtirish natijasida quduqlar soni 72 taga yetkazilganda mavjud ikkita gaz taqsimlash sexining (umumiy loyihaviy sutkalik quvvati 9,0 mln m³) texnologik imkoniyatlari chegarasiga yaqinlashishi aniqlangan. Gaz shleyflaridagi gidravlik yo‘qotishlar $\Delta P = \lambda \cdot (\frac{L}{D}) \cdot \frac{\rho v^2}{2}$ munosabati bo‘yicha baholanib, quduqlar soni ortishi bilan gaz oqimi tezligining o‘sishi bosim yo‘qotishlarining kvadratik ortishiga olib kelishi ko‘rsatilgan. Shu munosabat bilan quduqlar joylashgan maydonning geometrik markaziga yaqin zonada uchinchi gaz taqsimlash sexini (GTS-3) qurish taklifi ilmiy asoslangan; ushbu taklif inshootni kengaytirish loyihasiga kiritilgan va hozirda qurilish bosqichida.

Qishki mavsumda gaz olish rejimlarini kuzatish filtratsion qarshilik koeffitsientining mavsum oxiriga kelib 1,5-2 marta ortishi ayrim quduqlarda debitning 30-40 % ga kamayishiga olib kelishini ko‘rsatgan. Shu munosabat bilan qishki gaz olish rejimida yuqori depressiya qo‘llash qisqa muddatli samara bersa-da, uzoq muddatda quduq tubi zonasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan isbotlangan. Maqbul yondashuv sifatida gaz olishni bosqichma-bosqich tashkil etish, debitlarni quduqlar bo‘yicha mutanosib taqsimlash, ishchi depressiyani me’yoriy qiymatlar doirasida ushlab turish hamda qum tiqini hosil bo‘lishiga moyil quduqlarda profilaktik ishlov berish qabul qilingan.

Kompleks geofizik, gidrodinamik va texnologik tahlil asosida inshootni 1050,0 mln m³ faol gaz hajmida ishlatish rejimi ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan deb baholangan. Ombordagi umumiy gaz hajmi $V_{um} = V_a + V_b$ munosabatiga ko‘ra faol (V_a) va bufer (V_b) hajmlarga ajratilgan, faol gaz hajmining bosimlar diapazoniga bog‘liqligi esa $V_a \sim (P_{max} - P_{min})/Z$ ko‘rinishida ifodalangan. Ushbu rejimning asosiy parametrlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Xo‘jaobod GYOSIni 1050 mln m³ faol gaz hajmida ishlatish parametrlari

Ko‘rsatkichlar	XIX gorizont	XX-XXII gorizontlar	Jami
Faol gaz, mln m³	600	450	1050
Bufer gaz, mln m³	600	550	1150
Maksimal qatlam bosimi, kgf/sm²	229,5	231,3	-
Ekspluatatsion quduqlar soni	40	32	72
Sutkalik maksimal gaz olish, mln m³	4,9	5,3	10,2

Ishlatilayotgan obyektlarda faol gaz hajmini oshirish imkoniyatini baholash maqsadida 2016-2017-yillar gaz olish mavsumi ma’lumotlari bo‘yicha olingan gaz miqdorining qatlam bosimi nisbiy pasayishiga chiziqli bog‘liqligiga asoslangan moddiy balans usuli qo‘llanilgan.

Mavsum boshi va oxirida quduqlarda o‘tkazilgan statik bosim o‘lchovlari asosida XIX va XX-XXII gorizontlar uchun izobar xaritalari tuzilgan. Moddiy balansning grafik yechimini qo‘llash natijasida drenajlanadigan gaz zaxiralari XIX gorizont bo‘yicha 575 mln m³ ni, XX-XXII gorizontlar bo‘yicha 603 mln m³ ni tashkil etishi aniqlangan. Ushbu qiymatlar 2016-yil haydash mavsumi oxiridagi umumiy gaz hajmlari (mos ravishda 1054,354 va 1018,890 mln m³) bilan taqqoslanganda sezilarli tafovut qayd etilgan.

Tafovutlarning asosiy sababi suvlangan quduqlar ustyesida o‘lchanadigan statik bosimning quduq tubidagi suyuqlik ustuni ta’sirida $P_0^{st} = P_q - \rho g h$ munosabatiga ko‘ra sun’iy ravishda kam ko‘rsatilishi ekanligi isbotlangan. Qatlam bosimlarining haqiqiy qiymatlarini qayta baholash natijasida XIX gorizont bo‘yicha haqiqiy qatlam bosimi 119,2 kgf/sm² (quduq og‘zida o‘lchangan statik bosim – 45,2 kgf/sm²), XX-XXII gorizontlar bo‘yicha 123,3 kgf/sm² (statik o‘lchangan bosim – 44,8 kgf/sm²) ekanligi aniqlangan.

Mazkur xulosa 2022-yilda Xo‘jaobod GYOSIda o‘tkazilgan maxsus gazodinamik tadqiqotlar bilan ham tasdiqlangan: MGN-400 va MSU-25-100 rusumli chuqurlik manometrlari bilan o‘lchangan o‘rtacha qatlam bosimi XIX gorizontda 187,62 atm ni tashkil etgan bo‘lsa, o‘sha quduqlar ustyesida o‘lchangan bosim atigi 157,95 atm ni ko‘rsatgan; XX-XXII gorizontlarda bu qiymatlar mos ravishda 196,11 va 163,78 atm ga teng bo‘lgan. Ya’ni quduq usti statik o‘lchovi haqiqiy qatlam bosimini muntazam ravishda 19-20 % ga past ko‘rsatadi. Aniqlangan haqiqiy bosimlar asosida 2016-2017-yillar gaz olish mavsumi uchun drenajlanadigan gaz zaxiralari qayta hisoblangan (2-jadvalga qarang).

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, quduq usti statik o‘lchovi bo‘yicha olingan zaxiralar (569,0 va 611,2 mln m³) moddiy balans usulida dastlab aniqlangan 575 va 603 mln m³ qiymatlar bilan mos tushadi, ya’ni ushbu hisoblar aynan statik o‘lchovga asoslangan.

2-jadval.

Drenajlanadigan gaz zaxirasini qatlam bosimini o‘lchash usuliga qarab baholash (2016-2017-yillar gaz olish mavsumi)

Ko‘rsatkichlar	XIX gorizont	XX-XXII gorizontlar
Mavsumda olingan gaz, mln m³	452,673	490,416
Mavsum boshidagi qatlam bosimi, kgf/sm²	202,0	236,0
Mavsum oxiridagi haqiqiy qatlam bosimi (chuqurlik manometri bo‘yicha), kgf/sm²	119,2	123,3
Drenajlanadigan gaz zaxirasi (quduq usti statik o‘lchovi bo‘yicha), mln m³	569,0	611,2
Drenajlanadigan gaz zaxirasi (chuqurlik manometri bo‘yicha), mln m³	1085,7	1034,9
“O‘ZTRANSGAZ” AJ hisob balansi bo‘yicha gaz hajmi, mln m³	1054,354	1018,890
Chuqurlik manometri bo‘yicha hisobning hisob balansidan chetlanishi, %	3,0	1,6

Chuqurlik manometri bo‘yicha aniqlangan zaxiralar esa “O‘ZTRANSGAZ” AJ hisob balansidan atigi 3,0 va 1,6 % ga farq qilib, muhandislik aniqligi doirasida bo‘ladi, statik o‘lchov bo‘yicha olingan qiymatlar esa hisob balansidan 1,9 va 1,7 marta past chiqadi. Olingan natijalar 2023-yilda tuzilgan raqamli 3D geologik-gidrodinamik model bilan ham tasdiqlangan: unga ko‘ra harakatchan gaz hajmi XIX gorizontda 972,711 mln m³ ni, XX-XXII gorizontlarda 907,283 mln m³ ni tashkil etadi. Shu sababli faol va qoldiq gaz hajmlarini aniqlash hamda ishlatish rejimlarini maqbullashtirishda qatlam bosimini chuqurlik manometrlari yordamida tizimli o‘lchash tavsiya etilgan.


Xo‘jaobod GYOSI uchun tasdiqlangan loyihaga muvofiq qatlamdagi loyihaviy maksimal bosim P_{max} = 250,0 kgf/sm² etib belgilangan. Moddiy balans tahlili va qatlam bosimlarining haqiqiy qiymatlari asosida bosim ushbu qiymatgacha oshirilganda XIX gorizontda 1269,4 mln m³, XX-XXII gorizontlarda 1076,9 mln m³, inshoot bo‘yicha jami 2346,3 mln m³ gaz hajmini yaratish mumkinligi hisoblangan. Bu qatlamning tabiiy siqilish energiyasi va kollektor hajmlaridan hozircha to‘liq foydalanilmayotganligini hamda faol gaz hajmini 2,3 mlrd m³ dan ortiq darajaga yetkazish salohiyati mavjudligini ko‘rsatadi.

Gaz olish jarayonida suvlanish xavfini cheklash uchun ishchi depressiya $\Delta P \leq \Delta P_{kr}$ shartini qanoatlantirishi, kritik depressiya esa suv va gaz zichliklari farqi, vertikal o‘tkazuvchanlik, gaz-suv kontaktigacha bo‘lgan masofa va qatlam geterogenligini hisobga oluvchi $\Delta P_{kr} = (\rho_{suv} - \rho_{gaz}) \cdot g \cdot h/\alpha$ munosabati bo‘yicha baholanishi asoslangan. Suv konuslari hosil bo‘lishining oldini olishning zaruriy shartlari sifatida mavsumning yakuniy bosqichida minimal depressiyalarda ishlash, debitlarni keskin oshirmaslik va barcha quduqlarni bir maromda ishlatish asoslangan.

Dissertatsiyaning “Geofizik va gidrogazodinamik nazorat tizimlarini maqbullashtirish asosida Xo‘jaobod gazni yer osti saqlash inshootini ishlatish rejimlarini asoslash” deb nomlangan uchinchi bobida XIX, XX-XXII

ekspluatatsion gorizontlarda o‘tkazilgan geofizik va gidrogazodinamik tadqiqotlar metodologiyasi, ularning natijalari ilmiy tahlili hamda ularni kompleks qo‘llash asosida faol gaz hajmini oshirish va maqbul ishlatish rejimlarini ishlab chiqish natijalari yoritilgan.

Geofizik tadqiqotlar doirasida bir-birini to‘ldiruvchi usullar majmuasi qo‘llanilgan: GK – qatlamlarni litologik ajratish uchun; NGK, NNK, DNK – gaz va suv bilan to‘yingan intervallarni ajratish hamda gaz bilan to‘yinganlik koeffitsientlarini hisoblash uchun; INNK – gaz-suv kontaktlarining joriy holatini belgilash uchun; termometriya va debitometriya – quduqlarning texnik holati va quduq tubi zonasini baholash uchun.



2-rasm. Geofizik tadqiqotlar (INNK) ma’lumotlari bo‘yicha XIX-XXI gorizontlarning gaz bilan to‘yinganlik darajasini taqqoslash

